



UDK:902.6(575.151)

**Gulmira KATTAYEVA,**  
Termiz davlat universiteti dotsenti, PhD  
E-mail: kattayevag@tersu.uz

Termiz davlat universiteti professori, t.f.d Sh.Shaydullayev taqrizi asosida

### THE DIADEMS OF THE SAPALLI CULTURE

Annotation

The Sapalli culture, which formed in Northern Bactria during the Late Bronze Age (2250–1300 BCE), is represented by numerous archaeological finds, including a wide variety of ornaments (pins, diadems, earrings, beads, necklaces, pendants, amulets, bracelets, and rings). Among these types of jewelry, the diadems stand out for their craftsmanship and visual appeal. Since a diadem is a type of crown, in ancient times it served as an adornment symbolizing the status of men. This article discusses six diadems belonging to the class of head ornaments discovered at sites of the Sapalli culture, providing scientific and historical information about their morphological types (leaf-shaped, crescent-shaped, and triangular kerchief types) and their functions.

**Key words:** Sapalli culture, Sapallitepa, Djarkutan, Buston VI, typology of diadems, head ornaments, leaf-shaped, crescent-shaped, triangular kerchief.

### ДИАДЕМЫ САПАЛЛИНСКОЙ КУЛЬТУРЫ

Аннотация

Сапаллинская культура, сформировавшаяся на территории Северной Бактрии в поздний бронзовый век (2250–1300 гг. до н.э.), представлена многочисленными археологическими находками, среди которых большое количество украшений (фибулы, диадемы, серьги, бусины, ожерелья, подвески, амулеты, браслеты и кольца). Среди этих видов украшений диадемы особенно выделяются своим стилем изготовления и привлекательностью. Поскольку диадема является одним из видов короны, в древние времена она служила украшением, подчеркивающим статус мужчин. В данной статье рассматриваются шесть диадем, относящихся к классу головных украшений, обнаруженных на памятниках сопольской культуры. Освещаются их морфологические типы (листовидные, полулунные и треугольные платкообразные), а также сведения об их функции.

**Ключевые слова:** Сапаллинская культура, Сапаллитепа, Джаркутан, Бустан VI, типология диадем, головные украшения, листовидный, полулунный, треугольный платкообразный.

### SOPOLLI MADANIYATI DIADEMALARI

Annotatsiya

Sopolli madaniyati so'nggi bronza davri(mil.avv. 2250-1300)da Shimoliy Baqtriya hududida shakllangan madaniyat bo'lib, ushbu madaniyatga oid yodgorliklardan juda ko'plab taqinchoqlar (to'g'nog'ich, diadem, sirg'a, munchoq, marjon, shokila, tumor, bilaguzuk va uzuklar) topilgan. Ushbu taqinchoq tuplari orasida diademalar o'zining yasalish uslubi va jozibadorligi jihatidan alohida ajralib turadi. Diadema – bu tojning bir turi bo'lganligi uchun qadimgi davrlarda erkaklar maqomini bezash vazifasini bajargan. Ushbu maqolada Sopolli madaniyati yodgorliklaridan aniqlangan bosh uchun mo'ljallangan taqinchoqlar sinfiga kiruchi 6 ta diademalar, ularning morfologik tiplari(barg, yarim oy va uchburchak ro'mol), vazifasi haqidagi ilmiy-tarixiy ma'lumotlar yoritib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Sopolli madaniyati, Sopollitepa, Jarqo'ton, Bo'ston VI, diademalar tipologiyasi, bosh uchun mo'ljallangan taqinchoqlar, barg, yarim oy va uchburchak ro'mol.

**Kirish.** Sopolli madaniyati Janubiy O'zbekiston hududida shakllangan so'nggi bronza davriga oid madaniyat bo'lib, Oks sivilizatsiyasining mahalliy — Shimoliy Baqtriya varianti sifatida namoyon bo'ladi. 2024-yil ma'lumotlariga ko'ra Surxon vohasida ushbu madaniyatga oid yodgorliklarning umumiy soni 70 tadan oshgan[15:14-17; 21:460-469; 7]. Shundan 13 tasida arxeologik qazishma ishlari amalga oshirilgan.

Ushbu yodgorliklarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar shuni tasdiqlamoqdaki, Sopolli madaniyati aholisi xo'jalikning barcha sohalarini teng rivojlantirgan umumlashgan jamoadir. Ular me'morchilik, qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik ayniqsa zargarlik sohasida juda katta natijalarga erishishgan[18:3]. Sopolli madaniyati yodgorliklaridan bugungi kunda ayollarimiz tomonidan sevib taqiladigan taqinchoqlarning deyarli barcha turlari aniqlangan bo'lib ularga: bosh kiyimlar, bosh va bo'yin uchun mo'ljallangan taqinchoqlar, qo'l uchun mo'ljallangan

taqinchoqlar kiradi. Ammo, ushbu taqinchoqlar yasalish shakli va xomashyosiga ko'ra tubdan farq qiladi. Ushbu taqinchoqlar ichida bosh qismiga zoomorfik va antroporfik shakldagi haykalchalar o'rnatilgan to'g'nog'ichlar, to'pbarggulli to'g'nog'ichlar, zoomorfik va svastika tasvirlil tumorlar, ko'z chanoqli sirg'alar o'zining yasalish shakliga ko'ra alohida ajralib turadi. Ushbu madaniyat yodgorliklaridan aniqlangan bosh uchun mo'ljallangan taqinchoqlar sirasiga to'g'nog'ich, diadem va sirg'alar kiradi. Sopolli madaniyati yodgorliklaridan jami 6 ta diadem topilgan bo'lib, biz quyida ushbu diademalarning morfologik shakllari, yodgorliklar kesimida taqsimlanishi va xomashyosi masalalariga to'xtalib o'tamiz.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Sopolli madaniyati taqinchoqlari tipologiyasi bo'yicha ma'lumotlar A.A. Asqarov [1:77-78; 2:94-98; 3:19-31; 4:72-84], V.V.Luneva [8:71-73; 10:14-27; 9:96-103], V.D. Ruzanov [5:6-12; 13:140-169; 14:25-39], K.Kaniut [22:106-144], N.A.Avanesova [20],

E.Lyuno[24:222-238], A.Sh. Shaydullayev[16:94-95; 17:44; 18:67-70] va M.B. Meytarchiyani[12:41-45] kabi tadqiqotchilarning ilmiy tadqiqot ishlarida keltirib o'tilgan.

Xususan, A.A. Asqarovning ilmiy tadqiqot ishlarida Sopolli madaniyatining asosiy yodgorliklari Sopollitepa va Jarqo'tondan topilgan taqinchoqlar morfologik jihatdan tiplarga bo'lingan. Xususan, Sopollitepadan topilgan to'g'nog'ich, munchoq, shokila marjon, tumor, sirg'a, uzuk, diademlar va ularning yasali shakliga ko'ra tiplari[1:73-78; 2:94-100], shuningdek Jarqo'ton yodgorligidan ham 1973 – 1983-yillar oralig'ida amalga oshirilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan taqinchoqlar va ularning yasali shakliga ko'ra tiplari haqida ma'lumotlar keltirilgan[1:87-88; 3:19-31]. A.A. Asqarov, A.A. Abdurazzoqov, I.V. Bogdanova-Berezovskaya va V.D. Ruzanovlarning birgalikdagi ilmiy tadqiqot ishida Sopollitepadan topilgan metallardan yasalgan taqinchoqlarning kimyoviy tarkibi va yasali shakliga ko'ra tiplari to'g'risidagi ma'lumotlar keltirib o'tilgan[4:72-84; 5:6-12].

Sopolli madaniyati yodgorliklaridan topilgan taqinchoqlarning kimyoviy – metallurgik, morfologik jihatdan tipologik tahlili qisman V.D. Ruzanov[5:6-12; 13:140-169; 14:25-39] va K.Kaniut [22:106-144] lar ilmiy-tadqiqot ishlarida ham keltirib o'tilgan.

Sopollitepa va Jarqo'tondan topilgan taqinchoqlarning tipologiyasi V.V. Lunevaning doktorlik dissertatsiyasi ishida[10] Qadimgi Markaziy Osiyoning bronza davri taqinchoqlariga umumlashgan holda yoritilgan. Tadqiqotchi o'z ilmiy tadqiqot ishida taqinchoqlarni sinf, guruh va tiplarga bo'lib chiqqan. Bunda tadqiqotchi taqinchoqlarning inson tanasining qaysi qismiga taqilishiga qarab sinf va guruhlarga ajratgan bo'lsa, yasalgan xomashyosi va morfologik jihatdan tip va kichik tiplarga bo'lib chiqqan, shuningdek ushbu taqinchoqlarning Markaziy Osiyodagi analogiyasi to'g'risida umumiy ma'lumot berib o'tgan. Xususan muallif ushbu ilmiy tadqiqot ishida Markaziy Osiyoning bronza davri taqinchoqlarini to'rtta sinfga ajratgan:

1. Bosh uchun mo'ljallangan taqinchoqlar;
2. Bo'yin va ko'krakka taqiladigan taqinchoqlar;
3. Qo'l va oyoq uchun mo'ljallangan taqinchoqlar;
4. Kiyim uchun mo'ljallangan taqinchoqlar.

Ushbu sinflarga mansub taqinchoqlar o'z navbatida yasali shakli va xomashyosiga ko'ra quyidagicha guruh, tip va kichik tiplarga bo'lingan:

Bosh uchun mo'ljallangan taqinchoqlar ikki guruhga bo'lingan. Birinchi guruh – soch uchun mo'ljallangan taqinchoqlar – o'z navbatida ikki tipga bo'lingan: 1 – bosh kiyimlar va ulardagi bezaklar; 2 – soch va nina to'g'nog'ichlar. Ikkinchi guruh – bosh uchun mo'ljallangan taqinchoqlar – o'z navbatida ikki tipga bo'lingan: 1 – sirg'alar; 2 – chakka uchun halqalar.

Bo'yin va ko'krakka taqiladigan taqinchoqlar sinfi uchta guruhga bo'lingan. Birinchi guruh – shokila marjonlar – ular o'z navbatida yasalgan xomashyosiga ko'ra uchta tipga bo'lingan: 1 – rangli metallardan yasalgan shokila marjonlar; 2 – turli xil minerallardan yasalgan shokila marjonlar; 3 – chig'anoq va marvariddan yasalgan shokila marjonlar. Ikkinchi guruh – munchoqlar – o'z navbatida uchta tipga bo'lingan: «misr fayansi»dan yasalgan munchoqlar, toshdan yasalgan munchoqlar, shishadan yasalgan munchoqlar. Uchinchi guruhga uch turdagi taqinchoqlar kiritilgan: marjon – munchoq shodalari, jevak, ko'krakka oid taqinchoq[10: 14-27].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar – tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xronologik tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan.

**Tahlil va natijalar.** Diadem (diadem – qadimgi yunoncha “διάδημα” – “bosh tasmasi”, “aylana”, “halqa”).

Diadem asosan ayollarning yarim ochiq toj shaklidagi taqinchoq'i bo'lib, bu egasining zodagonlar oilasiga tegishli ekanligini ko'rsatadi. Diademplarning yana bir turi toj bilan birga kiyilib, uni kiygan kishining alohida mavqeini ko'rsatgan[11:31]. Diademplarga o'xshash halqa shaklidagi bosh kiyimlar qadim zamonlardan beri ma'lum bo'lgan. Diadem – bu tojning bir turi bo'lganligi uchun qadimgi davrlarda erkaklar maqomini bezash vazifasini bajargan. Misrda Qadimgi podshohlik davrida oltin diadem – toj fir'avnlarining belgi (atribut) si bo'lgan. Bosh uchun mo'ljallangan taqinchoqlar ikki guruhga bo'linadi: birinchisi – soch uchun mo'ljallangan taqinchoqlar; ikkinchisi – bosh uchun mo'ljallangan taqinchoqlar. Soch uchun mo'ljallangan taqinchoqlar ham o'z ichida ikkita tipga bo'linadi: birinchi tip – bosh kiyimlar va ulardagi bezaklar; ikkinchi tip – soch va nina to'g'nog'ichlar[10]. Diademplar ham soch uchun mo'ljallangan bosh kiyimlar tipiga kiradi. O'zining asosiy vazifasidan tashqari bosh kiyim va ulardagi bezaklar turli g'oyalarni aks ettirgan va ma'lum bir vazifani bajargan. Tadqiqotchilar fikricha, bronza davrida aholi boshni sehrlı buyumlar bilan himoya qilish mumkinligiga ishonishgan[10:12]. Bosh kiyim va ularga taqilgan bezak asosan ayollarda ramziy belgilarni, yosh darajalarini, ijtimoiy mavqeini ifodalasa, erkaklarda esa, ko'pincha hukmronlik ramzi hisoblangan[10].

Sopolli madaniyati yodgorliklaridan jami 6 ta diadem topilgan. Shulardan 3 tasi Sopollitepadan[1: 77. Tabl. 39. 1, 2, 3.], 1 tasi Jarqo'ton yodgorligidan[19:78], 2 tasi Bo'ston VI yodgorligidan[20: 53, 56, 523. Plate. № 7. 5, 6.] topilgan. Ular yasali shakliga ko'ra uchta tipga bo'linadi: barg, yarim oy va uchburchak ro'mol. Yasalgan xomashyosiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi: bronza, mis va loy.

Sopollitepa yodgorligidan topilgan diademlar bo'lak holatda saqlangan bo'lib, barg shaklida yupqa bronza plastinkasidan yasalgan. Ushbu shakl terak bargiga juda o'xshaydi. Ehtimol ushbu diadem ayol kishi boshiga ipak lenta yoki charm mato bilan birlashtirilgan. Yodgorlikdan topilgan diademlar Mesopotamiyaning ilk bronza davri shaharlaridan biri bo'lgan Ur shahri malikasi Malika Shubatning bosh bezagiga juda o'xshash[10:12; 6:112]. Sopollitepa diademplarining xronologik yoshi mil. avv. II mingyillikning ikkinchi choragiga to'g'ri keladi[13:166].

To'rtinchi diadem Jarqo'ton yodgorligidan topilgan bo'lib, u yodgorlikdan topilgan yagona diademdir. Negaki, hozirgi kungacha yodgorlikdan boshqa ushbu turdagi taqinchoq topilmagan. Diadem yarim oy shaklida misdan yasalgan bo'lib, ikkala uchida teshikchalar joylashgan[19:78]. Ehtimol shu teshikchalar orqali ip o'tkazilib, ayol boshiga bog'lab qo'yilgan va ayol bosh qismining yarmidan ko'proq qismini egallab turgan. Ushbu diadem yupqa bronza plastinkadan yasalgan bo'lib, uzunligi – 30 sm, kengligi – 24 mm, uch qismi tomon torayib borgan. Uch qismining kengligi – 7 mm.

Ushbu turdagi diademlar Shimoliy Eron va unga qo'shni bo'lgan Turkmanistonning bronzi davri yodgorliklaridan topilgan. Hind madaniyatida diademlar yoki bosh tasmasini taqish ayollar va erkaklar uchun an'ana bo'lganligi qabrlardan topilgan diademli haykalchalar bilan izohlanadi. O'rta yer dengizi mintaqasi va Eronda metall diademplarning paydo bo'lishi mil. avv. II mingyillikning boshlariga to'g'ri keladi[22:143].

Qolgan ikkita diadem Bo'ston VI yodgorligining 64 qabridan topilgan. Ushbu qabrdan 2 ta o'tirgan holatda yasalgan ayol kishining haykalchalari topilgan bo'lib, haykalchalarning soch qismi qizil rangli loydan yasalgan diadem bilan o'ralgan. Bo'ston VI qabristonida ushbu turdagi ramziy qabrlarning ko'plab turlari uchraydi. Ramziy qabrlarda odam o'rnida hayvonni (qo'y) ko'mish; odam haykalchasini ko'mish; kamon o'q uchlari va boshqa buyumlarni ko'mish

Bo'ston bosqichida keng tarqalgan bo'lib, bu udum odam ruhini dafn etish demakdir[7].

**Xulosa va takliflar.** Demak Sopolli madaniyati yodgorliklaridan 6 ta diadem topilgan bo'lib, bir-biridan xomashyosi va shakli jihatdan farq qiladi. Sopolitepa yodgorligidan topilgan 3 ta barg shaklidagi diadem aslida bitta diademning qismlari hisoblanib, alohida bo'laklar holatida saqlangan. Jarqo'ton yodgorligidan topilgan yarim oy

shaklidagi misdan yasalgan diadem, butun holatda saqlangan yagona ushbu turdagi taqinchoq hisoblanadi. Bo'ston VI yodgorligidan topilgan diademlar haykallarning peshona qismidan topilgan. Alohida qablardan esa, topilmagan. Xulosa shuki, Sopolli madaniyati yodgorliklaridan diademlarning juda kam namunalarining topilishi, ushbu madaniyat aholisi bu taqinchoqdan deyarli foydalanmaganligini ko'rsatadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Аскарлов А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. Ташкент, 1977. 232 с.
2. Аскарлов А. Сапаллитепа. – Ташкент, 1973. 172 с.
3. Аскарлов А., Абдуллаев Б. Джаркутан. – Ташкент, 1983. 122 с.
4. Аскарлов А., Абдуразаков А., Богданова-Березовская И.В., Рузанов В.Д. Химический состав металлических предметов из поселения Сапаллитепа // ИМКУ, 12. Ташкент, 1975. – С. 72-84.
5. Аскарлов А.А., Рузанов В.Д. Результаты исследования химического состава металла из могильников Бустан 3, 4 и 5 // ИМКУ, 23. Ташкент, 1990. – С. 6-12.
6. Емельянов В.В. Древний Шумер: очерки культуры. Санкт-Петербург, 2001. – 368 с.
7. Каттаева Г.Ч. Сополли маданиятининг заргарлик буюмлари. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация матни. Термиз, 2022. 189 бб.
8. Лунева. В.В. Классификация ювелирных украшений Узбекистана эпохи бронзы( III-Птыс. до и. э.) // Международная научная конференция, посвященная 60-летию академика АНРУз, профессора Э.В. Ртвеладзе: Тезисы докладов международной конференции. – Ташкент, 2002. – С. 71-73.
9. Лунева. В.В. Нагрудные украшения Узбекистана эпохи Бронзы (III-II тыс. до. н.э.)// Межвузовские научно – методические чтения памяти К.Ф. Калайдовича. Сборник статей.- Елецк, 2002. - №5. – С. 96-103.
10. Лунева. В.В. Формирование и развитие ювелирного искусства в среднеазиатском двуречье ( III-II тыс. до н.э. – III-IV вв. н.э.): Диссертация. д-ра ист. наук. –Ташкент, 2009.
11. Малкова Е.М. Украшение или символ: диадема в произведениях древнегреческого искусства // Актуальные проблемы теории и истории искусства. Сборник научных статей, III. Санкт-Петербург, 2013.
12. Мейтарчиан М.Б. Амулет эпохи бронзы с поселения Джаркутан // ИМКУ, 9. Ташкент, 1984. – С. 41-45.
13. Рузанов В.Д. Металлообработка на юге Средней Азии в эпоху бронзы. Самарканд, 2013. -347 с
14. Рузанов В.Д. Миграция племен в Узбекистане в эпоху палеометалла (Часть 1) / Археология Узбекистана №1(2)-2011, С. 25-39.
15. Хамидов О.А. Шимоллий Бактриянинг Кучук I даврига оид янги ёдгорликлари. Фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация матни. Тошкент, 2020. – Б. 14-17.
16. Шайдуллаев А. Сополли маданияти глиптикасида инсон образи // Ўзбекистон археологияси, 1 (12), 2016. – Б.91-98.
17. Шайдуллаев А. Ш. Сополли маданияти глиптикасида геометрик тасвирлар // Ўзбекистон археологияси, 1 (14), 2017. Б. 43-50.
18. Шайдуллаев А.Ш. Сополли маданияти глиптикаси ва сфрагистикаси. Фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация матни. Тошкент, 2017.
19. Шайдуллаев Ш, Хуфф Д., Тойфер М. Отчет Шерабадского отряда за 1996 год (Узбекско-Германская Бактрийская экспедиция). Фонд. 5. Д. 161. Самарканд, 1996.
20. Avanesova N. A. Buston VI – the necropolis of fire-worshippers of preurban Bactria. Samarkand, 2016. - 634 pp.
21. Kaniuth K. Life in the countryside. The rural archaeology of the Sapalli culture // Lyonnet, B., Dubova, N. A. (Eds.). The World of the Oxus Civilization (1st ed.). Routledge, 2020. – P. 457 – 487.
22. Kaniuth K. Metallobjekte der Bronzezeit aus Nordbaktrien // AMIT. Band 6. – Berlin, 2006. - 259 pp.
23. Kaniuth K. The Metallurgy of the late Bronze Age Sapalli Culture (Southern Uzbekistan) and its implications for the “Tin Question” // Iranica Antiqua, Vol. XLII, 2007. – P. 23 – 40.
24. Luncu E. L'age du Bronze final en Asie Centrale meridionale (1750-1500/1450 avant n.e.): la fin de la civilisation de l'Oxus. Universite Paris 1 – Pantheon – Sorbonne UMR 7041 – ARSCAN.Version 1 – 17 Jan – 2013. Volume II: Annexes.